



QURILISH ISHLARI

2021- yil yanvar-fevral oylarida

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami 401,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 129,9 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 86,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1417,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 283,8 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 70,7 % ni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 30,8 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 97,4 % ni tashkil qildi.



Ma‘lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



● 2021- yil yanvar-fevral

● 2020- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 53,9 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 39,6 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,5 % to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2020- yil yanvar-fevral

9,3



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,9



Fuqarolik obyektlarini
qurish

66,8



Bino va inshootlarni
qurish

2021- yil yanvar-fevral

6,5



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

39,6



Fuqarolik obyektlarini
qurish

53,9



Bino va inshootlarni
qurish



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

(mlrd. so‘m)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	401,3	86,7	283,8	30,8
<i>shaharlar</i>				
Guliston	112,6	0,2	106,6	5,8
Shirin	15,1	-	14,4	0,7
Yangiyer	26,1	-	24,6	1,5
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	24,9	0,2	21,7	3,0
Guliston	15,2	0,1	12,8	2,3
Mirzaobod	26,2	0,2	23,6	2,4
Oqoltin	22,2	-	20,6	1,6
Sardoba	6,6	-	4,9	1,7
Sayxunobod	11,3	0,1	9,9	1,3
Sirdaryo	33,6	0,1	24,2	9,3
Xovos	107,5	85,8	20,5	1,2

Hududlarda qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 101,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Guliston tumanida 109,5 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Xovos tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 522,3 % ni tashkil qildi.




Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 283,8 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 70,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 86,7 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 21,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 1417,2 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 30,8 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 7,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,4 % ni tashkil qildi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



○ Nodavlat mulkchilik shakli



● Davlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 98,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 24,5 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % punktga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 302,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 75,5 % ni oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % punktga kamaydi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 28,1 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Xovos tumaniga 26,8 %, Sirdaryo tumaniga 8,4 %, Mirzaobod tumaniga 6,5 % va Yangiyer shahrida 6,5 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37
(67) 236-86-27

